

SPORTCHI TALABALARING JISMONIY TAYYORGARLIGI VA ULARNING SALOMATLIGINI YAXSHILASH MUAMMOLARI.

Kurbanov A.Sh., Qarshi davlat universiteti.

Xasnutdinov N. Sh., Privoljsk davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti. Rossiya

Kalit so'zlar. Antropometriya , fiziometrik, koeffitsent, adaptiv, rezerv.

O'zbekistonda sportni tobora rivojlanib unga bo'lgan e'tiborni oshib borishi, talabalarni sportga jalg etilishining ko'payishi ularning sort mashg'ulotlari bilan shug'ullaninishini ilmiy asoslangan metodik yondashuvlar asosida tashkil etilishini taqazo etadi. Sport trenirovkalarini yigit va qizlar organizmining individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda amalga oshirilishi nafaqat uni natijadorligi, balki yoshlarning salomatligini muhofazalanishini kafolatlaydi. O'zbekiston janubinig o'ziga xos iqlim sharoiti bir tomondan va talabalarning o'ziga xos hayot tarzi ikkinchi tomondan sport mashg'ulotlarini olib borishda qo'llaniladigan umumiy qabul qilingan uslubiy yondashuvlarni modifikatsiya qilishni talab qiladi. Ushbu masalani hal qilish yo'lida olib boriladigan dastlabgi qadamlar sportshi yoshlar organizmining funksional imkoniyatlarini baholash ishlari yo'lga qoyish va bunda olingan natijalarni sport trenirovkalarini jarayonlarida e'tiborga olish dolzarb masala hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda Qarshi davlat universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti talabalari ishtirokida sportchi talabalarda qon aylanish va nafas olish tizimlari ko'rsatkichlari asosida organizmning funksional imkoniyatlarini baholash ishlari olib borildi. Bunda hozirgi vaqtida sport tibbiyotida keng qollanib kelayotgan usullardan antropometriya usullari (bo'y uzunligi, tana massasi), fiziometriya usullari (PWC_{170} , Pine indeksi, Erisman indeksi, Kvasning chidamlilik koeffitsentini aniqlash usullari Genchi sinamasi, Shtange sinamasi, Ruffe sinamasi) hamda ma'lumotlarni statistik qayta ishlash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot ishida Qashqadaryo viloyati sportchi talabalarida (Qarshi davlat universiteti talabalari misolida) qon aylanish va nafas olish tizimlari ko'rsatkichlarini fiziometrik tekshirishlar asosida organizmning funksional imkoniyatlari ilk bor baholandi. Olingan natijalar asosida tekshiriluvchilar organizmining adaptiv rezervlari tavsiflab berildi.

Olingan natijalar tekshiruvlarda ishtirok etgan sportchi talabalarning 58 foizida jismoniy tayorgarlik darajasi yaxshi, 22 foizida o'rtacha va qolgan qismida talab darajasida emasligini ko'rsatdi. Kuzatilgan holat talabalar bilan o'tkaziladigan sport mashg'ulotlarini tashkil etishda metodik metodik kamchiliklarga yo'l qo'yilganligidan bo'lishi mumkin deb hisoblaymiz, chunki tayorgarlikning turli bosqichlarida sport bilan shug'ullanuvchilarning jismoniy tayorgarligi, ular organizmining funksional imkoniyatlarini baholash ishlari olib borilmaydi. Bundan tashqari O'zbekiston janubinig o'ziga xos iqlim sharoiti va talabalarning o'ziga xos hayot tarzi sport mashg'ulotlarini olib borishda qo'llaniladigan umumiy qabul qilingan uslubiy yondashuvlarni moslashtirish ilmiy asoslangan yo'lga qo'yilmagan.

Olgan natijalarimiz oliy ta'lim muassasalari sharoitida sport bilan shug'ullanuvchi talabalarda jismoniy tayorgarlik darajasini yaxshilash, salomatligini muhofaza qilish masalalarida samarali yechim topishda amaliy yordam bo'ladi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Агаджанян Н.А. Экологическая физиология: проблема адаптации и стратегия выживания / X Междунар. симпоз. «Эколого-физиологические проблемы адаптации». – М., 2001. – С. 5-12.
2. Дубоносова С.В. Причины прекращения занятий спортом: ретроспективный анализ физической активности студентов-медиков. Спортивная медицина: наука и практика. 2023;13(1): 21–27. <https://doi.org/10.47529/2223-2524.2023.1.3>
3. Сейдалиева Л.Д., Хайруллаева Н.Д. Бадий гимнастика билан шуғулланувчи спортчилар организмида машғулот жараёнида кардиореспиратор тизимидағы үзгаришлар. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022. Vol. 2, Issue 3.
4. BG Boymuratovna, KS Kurbanovich, RY Shokirovich -[Supplying of Certain Vitamins for Pregnant Women in the Southern Regions of the Republic of Uzbekistan](#). Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 2021. 7609–7615.
5. BG Boymuratovna, B Shokhsanam, P Kamola PROBLEMS OF RATIONALIZATION OF NUTRITION OF PREGNANT WOMENNOVATEUR PUBLICATIONS INTERNATIONAL JOURNAL OF INNOVATIONS IN ENGINEERING RESEARCH AND TECHNOLOGY [IJIERT] ISSN: 2394-3696 Website: ijiert.org VOLUME 8, ISSUE 4, Apr.-2021.